

MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SPORT SOHASINING RIVOJI VA TARAQQIYOTI

Elmurodov Qilichbek Eldor o'g'li

Qarshi Davlat Universiteti

Sport fakulteti 1-bosqich talabasi.

Murojaat uchun Tel: +99890 883 92 79.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19118473>

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqil O'zbekiston Respublikasida sport sohasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va taraqqiyot istiqbollari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida sportni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, normativ-huquqiy asoslar, moddiy-texnik baza va sport infratuzilmasining takomillashuvi yoritib beriladi.

Shuningdek, ommaviy sportni rivojlantirish, yoshlar va ayollar sportini qo'llab-quvvatlash, professional sportchilar tayyorlash tizimi hamda xalqaro sport maydonlarida O'zbekiston nufuzining oshib borishi tahlil etiladi. Maqolada sport sohasining jamiyat sog'lomligi, yoshlar tarbiyasi va milliy g'ururni shakllantirishdagi o'rni asoslab berilib, kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston sporti, davlat siyosati, ommaviy sport, professional sport, sport infratuzilmasi, yoshlar sporti, xalqaro musobaqalar.

Abstract. In this article, the formation of the sports industry in the independent Republic of Uzbekistan, development stages and prospects of development are analyzed from a scientific and theoretical point of view. In the years of independence, the state policy aimed at the development of sports, regulatory and legal frameworks, material and technical base and improvement of sports infrastructure will be highlighted. Also, the development of mass sports, support of youth and women's sports, the system of training professional athletes, and the growing influence of Uzbekistan in international sports arenas are analyzed. In the article, the role of sports in the health of society, education of youth and the formation of national pride is justified, and conclusions on the directions of future development are put forward.

Keywords: sports of Uzbekistan, state policy, mass sports, professional sports, sports infrastructure, youth sports, international competitions.

Аннотация. В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируются становление спортивной индустрии в независимой Республике Узбекистан, этапы развития и перспективы развития. В годы независимости будет выделена государственная политика, направленная на развитие спорта, нормативно-правовую базу, материально-техническую базу и совершенствование спортивной инфраструктуры.

Также анализируются развитие массового спорта, поддержка молодежного и женского спорта, система подготовки профессиональных спортсменов, растущее влияние Узбекистана на международных спортивных аренах. В статье обоснована роль спорта в здоровье общества, воспитании молодежи и формировании национальной гордости, а также сделаны выводы о направлениях дальнейшего развития.

Ключевые слова: спорт Узбекистана, государственная политика, массовый спорт, профессиональный спорт, спортивная инфраструктура, юношеский спорт, международные соревнования.

Kirish

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi suverenitetining birinchi yillaridan jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga milliy taraqqiyotga yordam beruvchi muhim omil sifatida katta e'tibor qaratildi. Aynan shu maqsadlarda jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi o'zgarishlar jamiyatimizning yangi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy sharoitlariga moslashtirildi.

O'zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasidir, deb to'la ishonch bilan aytishimiz mumkin. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommalashuvini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish, jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, xalq milliy o'yinlarini qayta tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo'yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan amalga oshirish borasida ko'plab, qabul qilgan farmon va qarorlari mamlakatimizda sporti sohasini ommalashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatiga ega bo'ldi. Mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab bu sohada o'ziga hos islohatlarni amalga oshirish borasida muayyan ko'rinishdagi huquqiy bazasini shakllantirdi.

Jumladan, "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, "Bolalar va o'smirlar sport maktablarini kadrlar bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirlining buyrug'i, 2007-yilda "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini va bolalar sport obektlari qurilishining manzilli dasturini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori, "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori kabi rasmiy me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi yurtimizdagi barcha hududlardagi mahallalar va ko'chalardagi yoshlarni, o'zbek milliy sport o'yinlari bilan tarbiyalanishiga va komil inson bo'lib shakllanishiga olib keldi.[1 1-2-b].

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning ilk yillaridagi O'zbekistonni va o'zbek sportini dunyoga tanitish maqsadida dastlabki ishlaridan biri 1995-yil 29-avgustda Toshkent shahrida "Prezident kubogi" xalqaro turnir ochilishi bo'ldi. 2018-yilning 5-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, ilgari davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etilib, uning vazifa va vakolatlari kengaytirilgandi. 2018-yil 20-sentyabr kuni Yurtboshimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda sportchilarni tanlab olish seleksiya ishlarini takomillashtirish bo'yicha yangi tizim joriy etilishi dastlabki natijalarini berganligi ta'kidlandi. Biz xalqaro sport maydonlarida O'zbekistonning nufuzi va obro'-e'tiborini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz.

Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e'tibor berishimiz kerak,[1-dedi.2002-yilda O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Jamg'arma homiylik kengashining raisi etib saylandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kenges raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari mintaqaviy filiallar xomiylik kengashlarining raislari etib tayinlandilar. Sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda, uzluksiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida, "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida" 2003-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror asosida mamlakatda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarining hududlarda respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasi belgilandi. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog'lig'ini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlatimizda sport sohasini rivojlantirish maqsadida qator chora va tadbirlarni amalga oshirmoqda buning natijasida O'zbekiston sport bo'yicha terma jamolari osiyo va jahon miqyosida bo'lib o'tayotgan musobaqalarda yuqori o'rinlarni egallamoqda. Shu borada 2017-yil 15-fevral kuni Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonning birinchi bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilsin va uning negizida: – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi; – O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil qilinsin[3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifa va yo'nalishlari belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 31-oktyabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpoetish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Ushbu yig'ilishda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladilar va o'z nutqlarida shunday deydilar, mustaqillik yillarida bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi. Istedodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo'yicha uzluksiz tizim yaratildi. Umumta'lim maktablari va bolalar sport majmualaridagi mashg'ulotlarda qobiliyati ko'zga tashlangan o'g'il-qizlar bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport kollejlari olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g'alabalarni qo'lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Xususan, sportchilarimiz 2016-yili Braziliyada o'tgan Olimpiya o'yinlarida 13 ta, Paralimpiya o'yinlarida 31 ta medalga sazovor bo'lib, yurtimiz sporti tarixidagi eng yuqori natijalarga erishdilar [4].

2017-yilda O'zbekiston sportida bir qancha muhim voqealar sodir bo'ldi. Futbol sohasida "Futbol TV" telekanali ishga tushirildi, para-atletika bo'yicha sportchilarimiz jahon va Osiyo rekordlarini yangiladi, shuningdek yosh shaxmatchi Nodirbek Abdusattorov jahonning eng yosh grossmeysterlaridan biri maqomini qo'lga kiritdi [1].

2017–2025 yillar davomida O'zbekiston sporti xalqaro maydonda sezilarli yutuqlarga erishdi. Xususan, Parij-2024 yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sport delegatsiyasi 19 sport turida 90 nafar sportchi bilan ishtirok etib, jami 13medal (8 oltin, 2 kumush, 3 bronza) bilan umumjamoa hisobida 13-o'rinni egalladi bu Mustaqil O'zbekiston tarixidagi eng yuqori natijalardan biridir [2.]

Shuningdek, Parij Olimpiadasidan oldin O'zbekiston sportchilari 75 ta yo'llanma bilan qatnashishga muvaffaq bo'lishdi, bu bilan 19 ta sport turida ishtirok etish imkoniyati yaratilgan edi [3]. Paralimpiya o'yinlarida ham delegatsiyamiz yuqori ko'rsatkich bilan 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza bilan umumjamoa hisobida 13-o'rinni egalladi[4]. 2025-yilda O'zbekiston sportchilari xalqaro arenada yana bir bor o'z salohiyatini namoyish etdi: World Games 2025 musobaqasida 3 oltin, 3 kumush va 5 bronza medalni qo'lga kiritdi [5], shuningdek, III Osiyo yoshlar o'yinlarida ham ko'plab medal natijalari qayd etildi.

Xulosa

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston sport sohasida sezilarli rivojlanish kuzatildi. Davlat tomonidan sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi sport obyektlarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish orqali sportni ommalashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borildi. Shu davr mobaynida O'zbekiston sportchilari xalqaro musobaqalarda, jumladan Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari, Osiyo va Jahon chempionatlarida yuqori natijalarga erishib, mamlakatimiz obro'sini oshirdi. Bundan tashqari, yosh avlod sportchilarning muvaffaqiyatlari, sportni ommaviylashtirish dasturlari va xalqaro tadbirlarni mezbonlik qilish imkoniyati sport sohasining barqaror rivojlanishini ta'minladi.

Umuman olganda, Mustaqillik davrida O'zbekiston sporti nafaqat jismoniy tarbiya va sog'lom hayot tarzi vositasi, balki milliy g'urur va xalqaro obro'ni oshiruvchi muhim soha sifatida shakllandi.Sport infratuzilmasi ham mustahkamlandi.

So'nggi yillarda sportga ajratilgan mablag' ko'payib, yangi sport obyektlari qurildi va mavjudlari rekonstruksiya qilindi, hamda yoshlar sportini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar amalga oshirildi. Qator xalqaro tadbirlar, jumladan Osiyo Yoshlar o'yinlari kabi nufuzli musobaqalarni mezbonlik qilish imkoniyati paydo bo'ldi, bu yosh sportchilar uchun qo'shimcha tajriba maydoni yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SPORT SOHASINING RIVOJLANISHI. New Journal. Retrieved from <https://newjournal.org/new/article/view/2495/2304> newjournal.org
2. Turdimuratov, Y. A. (2023). Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport: uslubiy qo'llanma. Chirchiq: O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. ScienceWeb
3. O'zbekiston sportida 2017-yilda ro'y bergan muhim voqealar. Sputnik O'zbekiston. Retrieved from <https://oz.sputniknews.uz/20171228/7176626.html> JournalSS

4. Xalimov, A. R. (2025). O‘zbekistonda sport va jismoniy tarbiyaning rivojlanish tarixi (1991–2025). Modern Education and Development. JournalSS
5. Raxmatov, F. X. (2025). Mustaqillik davrida O‘zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanish tarixi. SHOKH Library. WOS Journals
6. Turdimuratov, Y. (2024). O‘zbekistonda xotin-qizlar sportining rivojlanishi [Conference paper]. Scienceweb. scienceweb
7. Ismoilov, H. (2024). O‘zbekistonda sportni rivojlantirish. Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali. WOS Journals
8. Rustamov, A. A. (2023). O‘zbekistonda uch bosqichli sport musobaqalarining rivojlanishi. NEW Journal. newjournal.org
9. Xusainov, S. Y., & Eshmuradov, K. A. (2024). O‘zbekistonda mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning taraqqiyoti. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan.